

Xo‘jalik- ichimlik suvini iste’mol qilish va yetkazib berish to‘g‘risida
№ 1 /802 -22-sonli SHARTNOMA

174411

Navoiy shahri

19.01.2022 yil

"Issiqlik manbai" Davlat unitar korxonasi nomidan, 06.01.2022 yildagi 02-22/11-22-sonli ishonchnomma asosida ish yurituvchi "Issiqlik Manbai" DUK Navoiy filiali boshlig‘i Axmedov SH.R, bundan keyin "Ta‘minotchi" deb yuritiladi, bir tomondan va NAVOIY VILOYAT BOSH TIBBIY IJTIMOY EKSPERT KOMISSIYASI nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi Raisi Shodiev U.R., bundan keyin "Iste‘molchi" deb yuritiladi, ikkinchi tomonidan ushbu shartnomani quyidagicha tuzdilar:

1. SHARTNOMA MAVZUSI.

1.1. "Ta‘minotchi" "Iste‘molchi"ga 01.01.2022 yildan 31.03.2022 yilgacha oldindan rejalashtirilgan ichimlik suvining umumi hajmi 82 m³bo‘lgan, umumi qiymati 211560 so‘m QQS bilan, xo‘jalik ichimlik suvini iste’mol qilish va yetkazib berishni o‘z zimmasiga oladi.

1.2. Ushbu shartnomada ko‘rsatilmagan masalalar bo‘yicha, ushbu shartnomani bajarishda tomonlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 15 iyuldaggi 194-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Iste‘molchilarga suv ta‘minoti va suv chiqarish xizmatlari ko‘rsatish qoidalarini" boshqarishini o‘z zimmalariga oladilar.

Suv iste‘molining haqiqiy hajmi har oyda hisobga olish moslamalari tomonidan aniqlanadi

2. SIFATI.

2.1. "Ta‘minotchi" tomonidan yetkazib beriladigan suvning sifati O‘zDST 950:2011 "Ichimlik suvi gigienik talablar va sifat nazorati" amaldagi standart talablariga javob berishi kerak.

3. HISOB – KITOB QILISH TARTIBI.

3.1. Chiqarilgan (qabul qilingan) suvning hisobi hisoblash qurilmasi ko‘rsatkichlari, tomonlarning javobgarligi bo‘linmasi chegaralarida, hisobga olish punktlarida o‘rnatilgan "Qoidalar" talablariga muvofiq bo‘lishi kerak.

3.2. Hisoblash qurilmasi "Iste‘molchi" tomonidan sotib olinadi va o‘rnatiladi, uning balansida bo‘lib, texnik xizmat ko‘rsatiladi.

Hisoblagich suv o‘lchagichlarining to‘g‘ri holati uchun javobgarlik "Iste‘molchi"ga tegishli. O‘z vaqtida ta‘mirlash, ishlamay qolgan qurilmalarni almashtirish va ularni viloyat standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish markazida tekshirish "Iste‘molchi" tomonidan o‘z mablag‘lari hisobidan, keyinchalik hisoblagichni "Ta‘minotchi" vakiliga yetkazib berish bilan amalgma oshiriladi.

Hisoblash moslamalari va ulardagi tamg‘alarining xavfsizligi va yaxlitligi uchun javobgarlik "Iste‘molchi" zimmasiga yuklanadi.

3.3. Agar "Iste‘molchida" hisobga olish uskunasi bo‘lmasa, "Iste‘molchilarga" sarflangan suv uchun hisob-kitob quyidagi quvur o‘tkazish qobiliyatidan kelib chiqib oyning kalendar kunlari hisobidan 24 soat ichida, quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$Q = M * F * \sqrt{2g * H * t}$$

Bunda Q - m³ bo‘yicha taxmini suv sarfi

M – 0,60 ga teng bo‘lgan zulfin (zadvijka) orqali suv sarfi koeffitsienti;

F - suyuqlik oqib o‘tadigan quvur yoki teshik kesimi maydoni(ichki diametr bo‘yicha) m²;

t – vaqt, 24 soat, soniyalarda;

g - 9,8 m / sek. ga teng bo‘lgan erkin tushish tezligi;

N - suvning metrlardagi bosimi.

3.4. Hisobga olish uskunasi ko‘rsatkichlarini har oyning 25-26 sanalarida "Ta‘minotchi" va "Iste‘molchilar" vakillari bilan birgalikda olinadi. Natija jurnalga qayd etiladi va imzolanadi.

3.5. "Iste‘molchi" ning aybi bilan hisoblagich ishlamay qolsa, iste‘mol qilingan suv miqdori hisoblagichning so‘nggi uch oylik o‘rtacha kunlik ko‘rsatkichlari bilan belgilanadi. Ushbu hisoblash tartibi hisoblagich o‘rnatilgunga qadar, lekin bir oydan oshmaydigan muddatga saqlanadi. Agar hisoblagich belgilangan muddat ichida o‘rnatilmagan bo‘lsa, unda iste‘mol qilingan suv miqdori 3.3. "Shartnoma" bandiga muvofiq belgilanadi.

3.6. "Iste‘molchi" ning aybi bilan hisoblagich ishlamay qolsa, hisoblagichning singanligi, buzilganligi, yetkazib beruvchi tomonidan tamg‘alangan zulfinlarda o‘rnatilgan tamg‘alarning buzilishi aniqlansa yoki "Ta‘minotchi"ga bu haqda xabardor qilmagan taqdirda sarflangan suv miqdori, so‘nggi tuzilgan "Dalolatnoma" sanasidan to yangi suvni hisobga olish asbobining o‘rnatilish sanasigacha "Iste‘molchi"lar uchun hisob-kitoblar Shartnomaning 3.3-bandga muvofiq hisoblanadi.